

O'zbekiston GBIF Xalqaro portaliga a'zo bo'ldi

O'zbekiston - GBIF (Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org) bioxilma-xillik bo'yicha xalqaro portaliga a'zo (associate participant) bo'ldi.



Biologik xilma-xillik obyektlarining GBIF (Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org) xalqaro elektron portali tirik organizmlarning 1387163619 dan kuzatuv nuqtalarini o'ziga jamlagan dunyoda eng yirik ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Respublikadagi biologiya sohasida tadqiqot olib boradigan ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlarining olimlari bu ulkan ma'lumotlar massividan foydalanish uchun katta ehtiyoj sezmoqdalar. O'z navbatida GBIF O'zbekiston Respublikasini haqiqiy a'zo sifatida qabul qilinishidan manfaatdor ekanligini bayon etgan. Mavjud ilmiy muassasalarni ehtiyojini qondirish katta ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, bunda:

1. Ushbu portalga O'zbekistonni a'zo bo'lishi ma'lumotlarning mazkur ulkan bazadan foydalanish imkoniyatini ochadi.
2. O'simlik va hayvonot olami obyektlari bo'yicha olib boriladigan barcha ilmiy tadqiqotlarda eng oxirgi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi.
3. Ayni paytda portal O'zbekiston hududidan olingan ma'lumotlar bilan boyitib boriladi va mahalliy ilmiy-tadqiqot muassalalarining jahon faniga integratsiyasini ta'minlaydi.